

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY BA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'LMAS SHARIPOVA
IBROHIM YO'LDOSHEV**

TILSHUNOSLIK ASOSLARI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida
nashrga tavsiya etgan.

TOSHKENT - 2006

ANNOTATSIYA

"Tilshunoslik asoslari" fanidan yozilgan ushbu o'quv qo'llanmada tilshunoslikning tarixi va nazariyasiga oid materiallar berilgan. Unda "Tilning paydo bo'lishi", "Til va tafakkur", "Til va jamiyat", "Yozuv va uning paydo bo'lishi", "Leksikalogiya", "Grammatik kategoriyalar", "Sotsiolingvistik", "Tillarning tipologik tasnifi" kabi mavzular atroflicha yoritib berilgan.

Ushbu qo'llanma oliy o'quv yurti filologiya fakulteti bakalavr yo'nalishi talabalari uchun yozilgan.

В настоящем учебном пособии приведены сведения по истории и теории языкознания. Подробно изучены такие темы как «Возникновение языка», «Язык и общество», «Письмо и его возникновение», «Лексикология», «Грамматические категории», «Социоллингвистика», «Типологическая классификация языков».

Пособие предназначено для студентов бакалавриатуры филологических факультетов ВУЗов республики.

Annotation

There are given materials about history and theory of linguistics in this manual. Undertaken attempt learn in detail such themes as "Origin of language", "Writing and its origin", "Grammar category", "Sociolinguistics", "Typological classification of languages".

Manual intends for Universitys bachelour students of filologik faculties in Uzbekistan.

Maxsus muharrir:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Saodat Muhammedova

Taqrizchilar:

filologiya fanlari doktori, professor
Ravshanxo'ja Rasulov,
filologiya fanlari nomzodlari, dotsentlar
Xislat Mahamadaliyev,
Ma'rufjon Yo'ldoshev

Muharrir: Odina Ergasheva

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2006-yil 18-iyuldagi 166-buyrug'iga asosan nashrga ruxsat berilgan

© Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

SO'ZBOSHI

Mazkur o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining O'zbek tili va adabiyoti va Chet tili fakulteti talabalari uchun «Tilshunoslik asoslari» kursi dasturi asosida yaratildi. O'quv qo'llanmada tilshunoslikka oid dastlabki masalalar yoritildi.

O'quv qo'llanmadagi materiallarni yozish mualliflar o'rtasida quyidagicha taqsimlandi: filologiya fanlari doktori, professor I.J.Yo'ldoshev tomonidan «Til va tafakkur», «Til va jamiyat», «Yozuv», «Leksikologiya», «Terminologiya», «Terminlarning yasalishi», «Etimologiya», «Leksikografiya» mavzulari, filologiya fanlari nomzodi, dotsent O.Sharipova tomonidan esa «Tilshunoslik fan sifatida», «Tilning mohiyati», «Tilning paydo bo'lishi», «Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanish qonuniyatlari», «Til sistema sifatida», «Fonetika va fonologiya», «Nutq tovushlari artikulyatsiyasi», «Nutq tovushlari tasnifi», «Nutqning fonetik bo'laklari», «Urg'u», «Tovushlarning nutq jarayonida o'zgarishi», «Leksik ma'noning kengayishi va torayishi», «So'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari», «Tabu va evfemizm», «Grammatika», «Morfologiya», «Sintaksis», «Sotsiolingvistika», «Sintagma», «Tillarning tipologik tasnifi» mavzulari yozildi.

O'quv qo'llanmani yozishda mualliflar O.Azizov, M.Irisqulovlarning «Tilshunoslikka kirish», A.Hojiyevning «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati», N.Mahmudovning «Til», «Ma'rifat manzillari» nomli kitoblaridan unumli foydalanishdi. Shu bois mualliflar ularga o'z minnatdorchiliklarini bildirishadi.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlarining O'zbek tili va adabiyoti hamda Chet tillar fakultetlarining talabalari uchun mo'ljallangan.

TILSHUNOSLIK FAN SIFATIDA

Tilshunoslik til haqidagi mustaqil va aniq fan bo'lib, tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari va qonuniyatlarini ilmiy asosda o'rganadi. Bu fan muayyan va umumiy tilshunoslik sohalaridan iborat. Tilshunoslik mikrolingvistika va makrolingvistikaga ajratiladi. Mikrolingvistika tilning faqat ichki, ya'ni fonetik, leksik va grammatik tuzilishini, makrolingvistika esa tilni boshqa fanlar bilan qo'shib o'rganadi.

«Tilshunoslik asoslari» kursi til haqidagi fanlarning asosiy masalalarini o'rganadi, shu bois, bunday bilimlarga ega bo'lmasdan uning ayrim bo'limlarini to'liq tasavvur qilish mumkin emas. Tilshunoslik fani tekshiradigan muammolardan eng asosiylari «Tilshunoslik asoslari» fanida o'rganiladi. Tilni tilshunoslikdan tashqari falsafa, mantiq kabi boshqa fanlar ham o'rganadi. Til va jamiyat taraqqiyoti bog'liqligi tufayli tilni sotsiologlar ham o'rganadilar. Tilshunoslar ham tarix, etnografiya, psixologiya, antropologiya, matematika, geografiya, fizika kabi fanlarga oid materiallar va xulosalardan foydalanadilar.

Dunyoda tilshunoslik borasidagi ilk qadamlar insonlar o'rtasidagi muloqotga bo'lgan zaruriyat sezilgan davrlardan e'tiboran qo'yilgan, desak yanglish bo'lmaydi. Tilshunoslik fani eng uzoq tarixga ega bo'lgan fanlar sirasiga kiradi. U eramizdan bir necha yuz yillar avval Qadimgi Hindiston va Qadimgi Yunoniston (Gretsiya)da taraqqiy etib boshlagan. Qadimgi Yunoniston olim va faylasuflari o'rtasida so'z va uning tushuncha mohiyati o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi masalasi ancha munozaralarga sabab bo'ldi. Bularning natijasi o'laroq olib borilgan tahlillar, kuzatishlar pirovardida tilning so'z boyligi, so'zlarning paydo bo'lishi haqidagi dastlabki nazariy fikrlarga asos solindi.

XIX asrning birinchi yarmida tilshunoslik sohasida juda katta marralarga erishildi. Xususan, bu davrda tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod shakllandi va unga hamohang tarzda til haqidagi fan ham qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fani deb yuritila boshlandi. Bu davrda Evropa tillarining sanskrit (qadimgi hind) tili bilan uzviy bog'lanishi borligini sezgan holda bu tillarning o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik taraflari jiddiy o'rganila boshlandi. Ayniqsa, tillarni qiyosiy-tarixiy o'rganish borasida nemis olimlari

Frans Bopp (1791-1867), Yakob Grimm (1785-1863), daniyalik olim Rasmus Rask (1787-1832), rus olimi Aleksandr Vostokov (1781-1864), chex olimi Dobrovskiy (1753-1829) kabilarning xizmatlari katta bo'ldi. Qiziqarli tarafi shuki, mazkur olimlar bir-birlariga bog'liq bo'lmagan holatda va bir davrning o'zida tillarni qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rganish metodi, g'oyasi va tamoyillarini ishlab chiqish borasida bir nuqtada uchrashdilar.

1818-yilda F.Boppning «Sanskrit tilining yunon, lotin, fors, va german tillariga qiyosan tuslanish sistemasi haqida» nomli asari chop etildi. Unda F.Bopp mazkur tillarning morfologik tuzilishini ko'rsatib bergan. Qolaversa, u hind-yevropa tillarining ko'p jihatdan mushtaraklikka ega bo'lganligini, xususan, grammatik qurilishini bir xilda ekanligini, bu tillarning bir o'zak tildan kelib chiqqanligini asoslab bergan. Xuddi shu yili R.Raskning «Qadimgi shimoliy til yoki island tilining kelib chiqishiga oid tadqiqotlar» nomli ilmiy ishi e'lon qilindi. R.Rask ham o'z asarida tillarning yaqinligini va o'xshashligini aniqlashda ularning grammatik qurilishi, tovushlarning bir-biriga mos kelishi kabi holatlar asos bo'lishini ta'kidlaydi. 1819 yilda Y.Grimmning «Nemis grammatikasi» nomli asarining birinchi jildi dunyo yuzini ko'rdi. 1920 yilda A.Vostokov qalamiga mansub «Slavyan tili haqida mulohazalar» nomli ilmiy asar chop etildi. E'lon qilingan bu ishlarda insoniyat tillarini yangi usul – tarixiy nuqtayi nazardan o'rganish metodi boshlab berildi.

Umuman, tilshunoslik fanining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olimlar – bu Ferdinand de Sossyur, Grosse, Boduen de Kurtene, N.V.Krushevskiy, eramizdan oldingi IV asrda yashagan hind olimi Panini, grek tilshunoslari Demokrit, Epikur, Geraklit, o'zbek tilshunoslari Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabilardir. Ular til haqidagi fanning yaratilishida o'zlarining salmoqli ilmiy g'oyalari, izlanishlari bilan ishtirok etganlar.

Tilshunoslik umumiy tilshunoslikning muammolarini tushunishga tayyorlaydi va shu bilan birga til haqidagi dastlabki ma'lumotlarni beradi.